




IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



“MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR SAQLASHDA “YASHIL IQTISODIYOT”, “YASHIL MOLIYA”, “YASHIL BUXGALTERIYA” VA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI ILMIY-AMALIY INTEGRATSIYALASHTIRISH DOLZARBLIGI”

Maqola va tezislar to‘plami

2025-YIL
30-MAY





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 171 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 11-martda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeveva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Omborxonada wms tizimidan foydalanishni afzalliklari.....	16
G'ofurov Shoxjaxon Abdumajit o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Интеграция проектного офиса в корпоративную структуру строительной компании, работающей по ерс-контрактам.....	21
Махмудов Сардор Козим угли	
Investitsion muhit va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili	24
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li	
Tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi itimoiy-iqtisodiy qarashlar tahlili	27
Abduvohidov Behzod XXX	
Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari.....	30
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	
O'zbekistonda davlat budjetini kupaytirishda soliqlarni ahamiyati.....	34
Karimova Gulbahor Normurodovna	
Dunyo oziq-ovqat bozorining dinamik rivojlanishidagi o'zgarishlar, qiyinchiliklar va ularning yechimlari	36
Tolipova Baxtigul Farxodovna	
Исследование тепловых и диффузионных процессов при азотировании зубчатых колес в вакуумной среде	39
Жасурбек Юлдашбоевич Холмирзаев	
Axborot tizimlaridan foydalangan holda tashkilotni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishni takomillashtirish	49
Xujamova Shahrizoda Otabek Qizi	
Sanoat sektorida dekarbonizatsiya va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish strategiyalari	52
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Sanoat rivojlanishini ekonometrik modellash (Surxondaryo viloyati misolida)	56
Xalmuratov Zakirjan Mekkamovich	
"Yashil iqtisodiyot" – barqaror taraqqiyot omili.....	58
Lapasova Kamola Farhod qizi	
Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	60
Raxmonov Baxtiyor Azzamovich	
"Makroiqtisodiy masalalarni yechishda matematik modellarning ahamiyati"	63
Abdiraimov Abbas Xolmurod O'g'li	
Moda marketingida iste'molchilarning ichki ehtiyojlari va xulq-atvoriga asoslangan yondashuvlar	67
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna	
O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish siyosatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tahlili	72
Raximov Ilyos Muydinovich	
Tijorat banklarida omonatlarni jalb qilishda mijoz sodiqligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar	75
Raximov Shoxrux Furqatovich	
Raqamli bank xizmatlarida sun'iy intellektdan foydalanishning istiqbollari va xavfsizlik masalalari	78
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
Ta'minot zanjirini optimallashtirish yo'llari.....	82
Matkarimova Umida Alisher qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
The role of global value chains in international trade competition.....	85
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi	
Электронная коммерция в узбекистане: государственные стратегии, технологический прогресс и барьеры развития.....	88
Махаммадалиева Муслимахон Шерали Кизи	



Modernization of the social protection system through digital technologies and innovative approaches.....	90
Abduzoirov Mukhiddin Umidjon ugli, Qudratov Inomjon Nemat ugli	
Tabiiy va sun'iy tolalar asosida qayta ishlangan mahsulotlarning texnologik sifati va iqtisodiy samaradorligi.....	93
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B bozori uchun barqaror va yashil taqsimot modellarini ishlab chiqish.....	97
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Chakana savdo va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish	102
Po'latova Sug'diyona Iskandar qizi, Abdullayev Firdavs Sanjar o'g'li, Ravshanova Muxtarama	
Zamonaviy shahar massivlarida xizmat ko'rsatish va boshqarishda "Aqlli shahar" konsepsiyasi	105
Ismailov Najmiddin Ilxamovich	
Germaniyaning ta'minot zanjirlarini boshqarish tajribasidan foydalanishni afzalliklari.....	108
Nuriddinov G'ulomiddin Ziyovuddin o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Ta'minot zanjirida CPFR texnologiyasi foydalanishni afzalliklari.....	111
Komilov Muhammad Yusuf Sardorbek o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Ta'minot zanjirlarini qo'llashda jahon tajribasi.....	115
Karimov Amirxon Anvarovich, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Sug'urtada investisiya faoliyatini tashkil etishni huquqiy asoslari	118
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
Yurtimizda amaldagi budjetlararo munosabatlar tartibi, hisobi hamda uning afzalliklari	122
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
Aholini ijtimoiy himoya qilish institutlari shakllanishining xorij tajribalari	127
Bobonov N.H.	
Способ организации продуктивной работы преподавателя и его влияние на результативность	131
Гулнора Казимова	
Literature is a reflection of the soul and culture of humanity	136
Sayidova Sayyora Yorikulovna	
Turizm infratuzilmasida transport xizmatlarini integratsiyalash: muammo va yechimlar	140
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Ekoturizm va madaniy meros obyektlariga tashrifni tartibga soluvchi huquqiy normalar	142
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition	145
Umida Kakhramonova Gayratovna	
Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar	149
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida mulkni qayta baholash va unga yetkazilgan moddiy zararni aniqlash.....	153
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
Shahar aglomeratsiyasining sifatini ekologik va geologik mezonlar asosida kompleks baholash.....	155
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Sanoatda korxonalarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash	160
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy tengsizliklarni kamaytirish usullari.....	165
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDIIY TENGSIZLIKLARNI KAMAYTIRISH USULLARI

Ibragimov Baxrom Baxodirovich
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning hududiy tengsizliklarga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot O'zbekiston misolida axborot xizmatlari hajmi, internetga ulanish imkoniyati, dasturiy ta'minot xarajatlari va telekommunikatsiya sektori rivojlanishi asosida olib borilgan. Statistik tahlillar raqamli infratuzilmaning kengayishi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatgan. Maqolada aniqlangan natijalarga tayangan holda hududlararo tenglikni mustahkamlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, hududiy tengsizlik, internet qamrovi, axborot xizmatlari, infratuzilma, barqarorlik.

Abstract: This article analyzes the impact of the digital economy on regional inequalities. The study is based on Uzbekistan's case, using indicators such as the volume of information services, internet accessibility, software expenditures, and the development of the telecommunications sector. Statistical analysis shows that the expansion of digital infrastructure plays a key role in ensuring socio-economic stability. Based on the findings, the paper offers policy suggestions aimed at enhancing regional equity.

Key words: digital economy, regional inequality, internet coverage, information services, infrastructure, stability.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние цифровой экономики на региональные неравенства. Исследование проведено на примере Узбекистана на основе таких показателей, как объем информационных услуг, доступ к интернету, расходы на программное обеспечение и развитие телекоммуникационного сектора. Статистический анализ показал, что расширение цифровой инфраструктуры играет важную роль в обеспечении социально-экономической стабильности. На основе полученных результатов предложены меры по укреплению межрегионального равенства.

Ключевые слова: цифровая экономика, региональное неравенство, интернет-покрытие, информационные услуги, инфраструктура, стабильность.

KIRISH

Global rivojlanish jarayonlarida raqamli iqtisodiyot davlatlarning barqaror taraqqiyoti, iqtisodiy xavfsizligi va ijtimoiy xizmatlar sifati uchun muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar, internet tarmoqlari va axborot xizmatlarining jadallik bilan kengayib borayotgani iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, mintaqaviy muvozanatni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda ham raqamli transformatsiyaga oid keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. So'nggi yillarda internet tarmoqlarining kengayishi, mobil aloqa infratuzilmasining mustahkamlanishi, axborot-kommunikatsiya xizmatlarining hajman va sifatan oshib borayotgani shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bu jarayonlar aholining hayot sifatini oshirish, davlat xizmatlarining ochiqligi va qulayligini ta'minlashda muhim rol o'ynayapti.

Shu bilan birga, raqamli imkoniyatlardan foydalanish darajasi barcha hududlarda bir xil emas. Chekka yoki iqtisodiy jihatdan nisbatan kam rivojlangan hududlarda internetga ulanish imkoniyatlari, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi past bo'lishi mumkin. Bu esa raqamli tenglik masalasini kun tartibiga olib chiqadi.

Shuning uchun mazkur tadqiqot raqamli iqtisodiyotning hududiy tengsizliklarni kamaytirishdagi rolini tahlil qilish, mavjud farqlarni aniqlash va ularni yumshatish yo'llarini taklif etishga qaratilgan. Ilmiy asosda olib borilgan tahlillar orqali mintaqaviy raqamli infratuzilmaning rivojlanish sur'atlari, xizmatlar hajmi, internet qamrovi va tashkiliy barqarorlik darajasi baholab chiqildi. Ushbu yo'nalishdagi izchil rivojlanish mamlakatda raqamli iqtisodiy o'sishni yanada jadallashtirishga xizmat qiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot va hududiy tengsizliklar mavzusi so'nggi yillarda ko'plab ilmiy izlanishlarda dolzarb yo'nalish sifatida qaralmoqda. Adabiyotlarni tahlil qilish orqali ushbu sohadagi konsepsiyalar, indikatorlar va amaliy yondashuvlar aniqlashtirildi.

Raqamli infratuzilmaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni bir qator tadqiqotlarda asoslangan. Ridzuan va hamkorlari raqamli texnologiyalarni infratuzilmaviy tenglikni ta'minlovchi vosita sifatida talqin qilib, ular orqali kambag'allikni kamaytirish imkoniyatlarini ko'rsatadi [1]. Shirinov esa O'zbekistonda raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha strategik yo'nalishlarni tahlil qilgan va mintaqaviy farqlarni kamaytirish mexanizmlarini taklif etgan [5]. Bu yondashuvlar tahlil va natijalarda o'rganilgan IT xarajatlari va axborot xizmatlarining YAIMdagi o'rni bilan bevosita bog'liq.

Hududiy farqlarni fazoviy modellashtirish orqali tahlil qilish yondashuvi Charrahay va boshqalar tomonidan Eron tajribasi asosida amalda sinovdan o'tkazilgan [2]. Ushbu uslub orqali iqtisodiy faoliyat turlari va raqamli infratuzilma o'rtasidagi hududiy tafovutlar aniqlangan. O'zbekiston bo'yicha Qazaqov tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv esa raqamli integratsiya orqali mintaqaviy tenglikka erishish zarurligini asoslaydi [4]. Bu g'oyalar tahlilda radar diagramma orqali ifodalangan internet qamrovi farqlari bilan bog'liq.

Raqamli xizmatlarning moliyaviy inklyuziyaga ta'siri haqida Salamov raqamlashtirilgan bank xizmatlari orqali aholining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishni asoslagan [6]. Mirzamahmudov esa investitsiyalar va infratuzilma aloqasi orqali hududiy iqtisodiy faollikni oshirish yo'llarini ko'rsatadi [7]. Tahlil bo'limida bu holat raqamli xizmatlar hajmining ortib borishi va ulardan foydalanish darajasidagi hududlararo tafovutlar bilan tasdiqlandi.

Xalqaro tajribalardan biri sifatida Peña-Acevedo Andalusiyada agrosanoatda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali mintaqaviy tengsizliklarni kamaytirishga erishilganini ko'rsatadi [9]. Nosova va Makovoz esa Ukraina tajribasi asosida raqamli transformatsiyaning hududlar o'rtasidagi ijtimoiy imkoniyatlarga ta'sirini tahlil qilgan [8]. Ularning xulosalari O'zbekistonda telekommunikatsiya va axborot xizmatlari hajmidagi o'sish orqali amalga oshayotgan raqamli transformatsiya bilan bevosita bog'liq.

Atkin va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanish narvoni modeli davlatlar texnologik murakkabligi bilan ularning raqamli salohiyati o'rtasidagi bog'liqlikni ochib bergan [3]. Bu yondashuvga ko'ra, yuqori texnologiyali xizmatlar hajmining ortishi eksport salohiyatini oshirib, iqtisodiy tenglikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu konsepsiya tahlil bo'limida xizmatlar sektoridagi o'sish bilan bog'liq statistikalar bilan uyg'unlashadi.

Korxonalarning faoliyati va ularning barqarorligi sohani baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Thompson va boshqalar tarixiy jamiyatlar misolida ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy imkoniyatlar farqini tahlil qilgan [12]. O'zbekistonda esa Shagazatov xorijiy investitsiyalarning hududiy iqtisodiyotga ta'sirini o'rgangan va ijtimoiy barqarorlikka olib keluvchi iqtisodiy omillarni ko'rsatib bergan [10]. Ushbu g'oyalar korxona va tashkilotlar soni dinamikasiga oid ustun diagramma orqali yoritilgan natijalar bilan bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning hududiy tengsizliklarga ta'sirini aniqlash uchun empirik va statistik yondashuvlar asosida tahlil olib borildi. Asosiy indikatorlar sifatida dasturiy ta'minot xarajatlarning YAIMdagi ulushi, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi, telekommunikatsiya xizmatlari salmog'i, internet tarmoqlariga ulanish imkoniyatlari hamda ushbu sohalarida faoliyat yurituvchi korxona va tashkilotlarning barqarorligi tanlab olindi.

Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy portali – www.stat.uz orqali olingan ochiq ma'lumotlar to'plamiga tayanadi. Ma'lumotlar 2000–2023 yillar oralig'ida yillik kesimda yig'ilib, vaqt qatori sifatida tahlil qilindi. Vizualizatsiya uchun radar diagramma, chiziqli grafiklar va ustunli diagrammalardan foydalanildi.


Soha barqarorligini baholashda faoliyatini tugatgan tashkilotlar sonining yillik dinamikasi, raqamli xizmatlar kengayishini aniqlashda esa internet tarmoqlari bo'yicha qamrov darajasi asosiy mezon sifatida qo'llandi. Bu indikatorlar orqali hududiy tafovutlarni tahlil qilish imkoniyati yaratildi hamda raqamli transformatsiyaning iqtisodiy tenglikka ta'siri ilmiy asosda aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqot doirasida raqamli iqtisodiyotning hududiy tengsizliklarga ta'siri tizimli tarzda tahlil qilindi. Tahlil asosan quyidagi yo'nalishlarda olib borildi: raqamli infratuzilmaning mavjud holati, axborot xizmatlari salohiyati, telekommunikatsiya va internet kirish imkoniyatlarining kengayishi, shuningdek, ushbu sohalarida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning barqarorligi.




Raqamli iqtisodiy infratuzilmaning mamlakat ichida qanday darajada shakllanganligini ko'rsatuvchi asosiy indikatorlardan biri – axborot texnologiyalariga ajratilgan xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushidir.



1-rasm. Dasturiy ta'minot xarajatlarining YAIMdagi ulushi (%) (2021–2023).

1-rasmdan ko'rinadiki, dasturiy ta'minotga yo'naltirilayotgan mablag'lar yil sayin ortib bormoqda. Bu holat axborot texnologiyalarining iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlab borayotganini ko'rsatadi. Davlat va xususiy sektor tomonidan IT infratuzilmaga e'tibor kuchaygani barqaror rivojlanish uchun muhim omilga aylangan.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishi iqtisodiy faoliyatning diversifikatsiyalangan ko'rinishini ta'minlaydi. Ular iqtisodiyotning innovatsion sektorlariga kiradi va zamonaviy infratuzilmasiz faoliyat yurita olmaydi.



2-rasm. Ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi (2000–2023, mlrd so'm).



2-rasmdan yaqqol ko'rinadiki, 2000-yildan 2023-yilgacha ushbu xizmatlar hajmi barqaror va uzluksiz o'sib borgan. Bu holat davlat siyosatining axborot texnologiyalariga bo'lgan yondashuvi natijasi bo'lib, xizmatlar sektorida yuqori qo'shilgan qiymat hosil qilinayotganini anglatadi.




3-rasm. Telekommunikatsiya xizmatlari hajmi (2010–2023, mlrd so'm).

Shu bilan birga, telekommunikatsiya xizmatlari hajmi ham keskin o'sish ko'rsatgan. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi davrda bu o'sish sur'ati tezlashgan. Bu holat O'zbekistonda raqamli infratuzilmaning kengayishida mobil aloqa, internet provayderlar va sun'iy yo'ldosh tarmoqlarining o'ri oshayotganini bildiradi(3-rasm).

Aholining raqamli iqtisodiyotdan foydalanish darajasi ko'p jihatdan internet tarmoqlariga ulanish imkoniyati bilan belgilanadi. Simli, simsiz va sun'iy yo'ldosh tarmoqlarining rivojlanish darajasi uy xo'jaliklarining iqtisodiy va ijtimoiy hayotga raqamli yo'l bilan qo'shilish imkoniyatini yaratadi.

Uy xo'jaliklarining internetga ulanish imkoniyati (2023)




4-rasm. Uy xo'jaliklarining internetga ulanish imkoniyati (2023).



Mazkur radar diagrammada ko'rsatilganidek, keng yo'lakli simsiz tarmoqqa ulanish imkoniyati eng yuqori ulushni egallaydi (18.6%). Simli tor yo'lakli tarmoqlar esa juda kam (0.65%) qamrovga ega. Bu raqamlar mavjud siyosatning mobil texnologiyalarga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sun'iy yo'ldoshli ulanish imkoniyatining ham mavjudligi – geografik cheklovlar mavjud bo'lgan hududlarda axborotga kirish imkonini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi(4-rasm).

Axborot va aloqa sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni, ularning tugatilish dinamikasi soha barqarorligi va investitsion muhitning ahvoli haqida aniq tasavvur beradi(5-rasm).



5-rasm. Axborot va aloqa sohasida tugatilgan korxona va tashkilotlar soni (2018–2023).

2018–2023 yillar oralig'ida ushbu sohada faoliyatini yakunlagan subyektlar sonida biroz tebranish kuzatilgan bo'lsa-da, 2021-yildan boshlab pasayish tendensiyasi qayd etilgan. Bu holat sohada me'yoriy-huquqiy barqarorlik, raqamli xizmatlar bozorining kengayishi va raqobatbardosh korxonalar sonining ortishi bilan izohlanadi. Korxona tugatilishlarining kamayishi esa iqtisodiy siyosatning bu sohadagi ijobiy natijalaridan dalolat beradi(5-rasm).

Charrahy va hammualliflari [2] fazoviy tengsizliklar tahlilida raqamli xizmatlardan foydalanish darajasini asosiy indikator sifatida belgilaydi. O'zbekiston sharoitida ham bu omil hududlararo iqtisodiy tafovutlarni tushunishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Masalan, raqamli xizmatlar sifati yuqori bo'lgan hududlarda nafaqat axborotga kirish darajasi, balki bandlik, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati ham yuqoriroq bo'lishi kuzatiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi hududiy tengsizliklarni kamaytirishda kuchli vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli infratuzilmaning kengayishi, internet tarmoqlarining kirish darajasi va axborot xizmatlarining o'sish sur'atlari iqtisodiyotning turli hududlardagi muvozanatli rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Ayniqsa, dasturiy ta'minot xarajatlarning YAIMdagi ulushi ortib borayotgani, axborot va telekommunikatsiya xizmatlari hajmining barqaror o'sishi va uy xo'jaliklarining internet tarmoqlariga ulanish imkoniyatlari yaxshilangani raqamli transformatsiya jarayonining ijobiy yo'nalishda rivojlanayotganini ko'rsatmoqda.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, soha korxonalarining barqarorligi oshib, faoliyatini tugatayotgan tashkilotlar soni kamaymoqda. Bu esa raqamli iqtisodiy muhitdagi ishonchning ortgani, infratuzilma imkoniyatlarining kengaygani va investitsion sharoitning yaxshilanayotganini bildiradi.

Ushbu jarayonlar natijasida iqtisodiy faoliyat ko'lami kengaymoqda, aholi raqamli xizmatlardan foydalanish orqali turli sohalarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu holat ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy inklyuziya va texnologik taraqqiyot uchun qulay zamin yaratmoqda.

Tadqiqotdan kelib chiqib quyidagilar takliflar ishlab chiqildi:

1. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishini barcha hududlarda izchil va muvozanatli ta'minlash zarur.
2. Uzoq va chekka hududlarda internet xizmatlarining qamrovini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha



rag'batlantiruvchi mexanizmlar joriy etilishi lozim.

3. Aholining raqamli savodxonligini oshirish maqsadida hududiy o'quv platformalari va mahalliy trening dasturlari yo'lga qo'yilishi kerak.

4. Axborot xizmatlariga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni mintaqalar kesimida muvozanatli taqsimlash orqali iqtisodiy tenglikka erishish mumkin.

5. Raqamli taraqqiyot jarayonlarini doimiy monitoring qilish tizimi orqali siyosiy qarorlar samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki hududlar o'rtasidagi imkoniyatlar tengligini ta'minlovchi asosiy strategik yo'nalish bo'lib bormoqda. Ushbu yo'nalishdagi izchil siyosiy irodalar va texnologik rivojlanish natijalari yaqin yillarda yanada keng qamrovli ijobiy o'zgarishlarga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ridzuan, M. I. M., Morshidi, A. B., Zakaria, N. S., Idris, R. Z., & Jambol, D. J. A. (2025). Unraveling the nexus: Exploring Malaysia's research trends in advancing UN SDG 1. *Multidisciplinary Reviews*, 8:e2025050. <https://doi.org/10.31893/multirev.2025050>
2. Charrahy, Z., Aghamohammadloo, F., & Shamoradi Samani, R. (2025). Spatial Modeling and Analysis of Poverty with a Focus on Spatial Inequalities: Case Study of Zanjan Province. *Journal of Town and Country Planning*, 16(2), 285–301. <https://doi.org/10.22059/jtcp.2025.388026.670489>
3. Atkin, D., Costinot, A., & Fukui, M. (2021). Globalization and the Ladder of Development: Pushed to the Top or Held at the Bottom? NBER Working Paper No. 29500. <https://www.nber.org/papers/w29500>
4. Qazaqov, T. (2024). Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 2(74), 74–91. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
5. Shirinov, A. Q. (2024). "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish islohotlar tendensiyasi sifatida. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Xalqaro Nordik Universiteti, 304–308.
6. Salamov, A. X. (2024). Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 2(74), 46–49.
7. Mirzamahmudov, M. M. (2024). Kambag'allikni qisqartirishda infratuzilmaga investitsiyalarning roli. O'zbekiston–2030 strategiyasi konferensiyasi materiallari, 287–291.
8. Nosova, O., & Makovoz, O. (2025). The Development of Innovations in Ukrainian Regions: Challenges and Solutions. *Revista de Gestão Social e Ambiental*. <https://www.researchgate.net/publication/390438116>
9. Peña-Acevedo, A., Márquez, M. A., Rodríguez-Pomeda, J., & Téllez, L. (2025). Assessing Agri-Food Digitalization in Andalusia. *World*, 6(2), 57. <https://doi.org/10.3390/world6020057>
10. Shagazatov, O. B. (2024). Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 2(74), 74–77.
11. Demianiuk, O., Dudka, T., Hromak, T., & Kutsenko, O. (2025). Transformation of International Investment and Its Influence on Global Inequality. *Herald of Economics*, 2(62), 110–120.
12. Thompson, A. E., von Rueden, C., & Borgerhoff Mulder, M. (2025). Assessing Neighborhoods, Wealth Differentials, and Perceived Inequality in Preindustrial Societies. *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 121(4), e2400699121. <https://doi.org/10.1073/pnas.2400699121>
13. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Raqamli iqtisodiyot va xizmatlar statistikasi. www.stat.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025-yil, may.

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
